

ISSN (E): 2181-4570

“Muqaddimat ul-adab” asaridagi teologizmlar

Rajabov Doniyor

UrDU 1-kurs magistranti

Tel: +998 97 605 30 91

Annotatsiya. Ushbu maqolada ilm-fan rivojiga sezilarli hissa qo'shgan, nafaqat turkiy, balki arab dunyosida ham o'z o'miga ega bo'lgan, bir qancha asarlari bilan o'lmas nom qoldirgan qomusiy olimlardan biri Mahmud Zamakhshariyning "Muqaddimat ul-adab" asaridagi teologizmlar tadqiq qilingan. Bugungacha bu asarning ko'plab tadqiqotchilar tomonidan u yoki bu jihatdan o'r ganilganligini bilamiz, bizning ushbu tadqiqotimiz boshqalaridan teologizmlar jihatdan o'r ganilmaganligi bilan ajralib turadi. Maqolada teologizmlarning asardagi qo'llanish o'rni hamda hozirgi kundagi variantdoshligi tadqiq qilingan.

Аннотация. В данной статье один из ученых-энциклопедистов, внесших значительный вклад в развитие науки, имевший место не только в тюркском, но и в арабском мире, оставивший бессмертное имя несколькими трудами, Махмуд Замахшари, в работе «Мукаддимат уль-адаб» исследуются теологии. До сегодняшнего дня мы знаем, что эта работа так или иначе изучалась многими исследователями. В статье рассматривается использование богословия в работе и его современные варианты.

Abstract. In this article, one of the encyclopedic scientists who made a significant contribution to the development of science, who had a place not only in the Turkish, but also in the Arab world, who left an immortal name with several works, Mahmud Zamakhshari, in the work "Muqaddimat ul-adab" theologies are explored. Until today, we know that this work has been studied by many researchers in one way or another. The article examines the use of theology in the work and its current variants.

Kalit so'zlar: teologiya, termin, so'zlar, lug'at, texnika, arabcha so'zlar, yordamchi so'zlar

Ключевые слова: богословие, термин, слова, лексика, техника, арабские слова, вспомогательные слова.

Keywords: theology, term, words, vocabulary, technique, Arabic words, auxiliary words

Mamlakatimizda ilm-fan rivojiga bugungi kunda alohida e'tibor qaratilmoqda. "Ilm-fan – taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g'oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo'q¹", - deydi muhtaram Prezidentimiz o'z nutqida. Haqiqatan ham, faqat ilm va ma'rifat, intellektual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar hisobidan biz O'zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz. Buning uchun esa nafaqat zamondosh olimlarning, balki oradan qancha vaqt o'tishiga qaramasdan o'z asarlari bilan hozirgi ilm-fanga ham katta ta'sir ko'rsatayotgan qomusiy bilimdonlarning ham asarlarini o'rganishimiz, ularni tadqiq qilishimiz va bugungi davr ilmiga moslashtirishimiz kerak. Shunday qomusiy bilimdonlardan biri Mahmud Zamaxshariydir.

Mahmud Zamaxshariy 1075-yilning 18-mart kuni Xorazmning Zamaxshar (hozirgi Dosho'g'uz viloyatining Izmixshir qishlog'i) qishlog'ida dunyoga kelgan. U qomusiy bilim sohibi bo'lib, o'zidan sarf, nahv, tafsir, mantiq kabi fan sohalariga oid "al-Kashshof", "al-Mufassal", "Atvoq uz-zahab" va "Navobig' ul-kalim" singari o'nlagan asarlarni yozib qoldirgan. Uning "Muqaddamat ul-adab" asari ayniqsa katta shuhrat qozongan.

Asar besh katta qismga bo'lingan bo'lib — otlar, fe'llar, bog'lovchilar, ot o'zgarishlari va fe'l o'zgarishlari haqida bahs yuritadi. Asar 1137-yillari yozib tugallangan. Az-Zamaxshariy o'z asarida o'sha davr arab tilining iste'molda bo'lgan barcha so'zлari, iboralarini qamrashga intilgan, ularning etimologiyasiga katta e'tibor qilgan. Shu boisdan ham, az-Zamaxshariyning bu yirik asarini mazkur yo'nalishdagi dastlabki asarlardan deyishga haqlimiz. Asar bir necha asrlar davomida olimlar, tadqiqotchilar diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelayotir. O'ylaymizki, asarning teologiya sohasida olib boradigan tadqiqotlarimiz ham e'tiborga molik bo'lib, bizdan keyingi tadqiqotchilarga asqotadi deb o'ylaymiz.

Teologiya (yun. theos — xudo va ...logiya) — xudoning mohiyati va irodasi haqidagi diniy ta'limotlar majmuyi. Xudo shaxsan o'zini vahiy orqali kishilarga ma'lum qiladi degan konsepsiya asoslanadi. Muqaddas kitoblar va muqaddaslashtirilgan yozuvlar teologiyaning asosiy manbalari hisoblanadi. Teologiya turli diniy o'quv yurtlari — seminariyalar, akademiyalar, madrasalar va boshqalarda

¹ Toshkentda 7-dekabr kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning davlat mukofotlarini tantanali topshirishga bag'ishlangan yig'ilishdagi nutqidan

ISSN (E): 2181-4570

o‘qitiladi. Teologiya tushunchasi, avvalo, induizm va xristianlikka nisbatan qo‘llangan. Teologiya islomda ilohiyot, kalom atamalari bilan ham ataladi².

Arabcha	Forscha	Turkiycha
دِينُ, أَدِيَانُ ج din, adyon j	کیش kesh	[din, oyin]
حَنِيفٌ, حُنَافَاءُ ج hanif, hunafo j	مسلمان رаст musulmoni rost	[chin musulmon]
وُضُوءٌ vuzu'	آبدست obdast	[tahorat]
غُسْلٌ ف g‘usl		
لَمْعَةٌ lum'a	آنچ آب نرسд др غسل onch, ob narsad dar g‘usl	[g‘uslda suv yetishmasligi]
صَلَاةٌ, صَلَوَاتٌ ج salo, salavot j	نماز namoz	[namoz]
زَكْوَةٌ ف, زَكَوَاتٌ ج zako, zakavot j		
صَدَقَةٌ ف, صَدَقَاتٌ ج sadaqa, sadaqot j		
فَرِيزَةٌ, فَرَائِضٌ ج fariza, faroiz j	فرمودе خда farmudayi Xudo	[Alloh buyurgani]
سُنَّةٌ, سُنَّتٌ ج sunna, sunan j	فرمودе رسول farmudayi rasul	[Rasululloh buyurgani]
نَفْلٌ, نَافِلَةٌ ج, نَوَافِلٌ ج nafl, nafla, navofil j	طاعت اфзони toati afzuniy	[qo‘shimcha toat-ibodat]

² O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2005).

ISSN (E): 2181-4570

سَمْتٌ Samt	راه راست rohi rost	[to'g'ri, haq yo'l]
ذِمَّةٌ, ذِمَّمٌ zimma, zimam j	زینهار zinhor	[va'da, kelishuv]
ذِمَامٌ Zimom		
ذِمَارٌ مٌ zimor m		
عَهْدٌ مٌ, عَهْوَدٌ aqd m, uqud j		
مِيَّاقٌ مٌ, مَوَاثِيقٌ جٌ misoq m , mavosiq j		
مَوْثِيقٌ مٌ, مَوَاثِيقٌ جٌ mavsiq m, mavosiq j		
مَعْرُوفٌ ma'ruf	کار نیک kori nek	[xayrli, yashi ish, amal]
مُنْكَرٌ Munkar	کار بد kori bad	[yomon, gunoh amal]
سُخْتٌ Suht	حرام harom	[harom]
حَسَنَةٌ, حَسَنَاتٌ جٌ hasana, hasanot j	کردار نیک kirdori nek	[ezgu amal]
ثُوابٌ Savob	پاداش نیک podoshi nek	[savob, ajr]
سَيِّئَةٌ, سَيِّئَاتٌ جٌ sayyi'a, sayyi'ot j	کردار بد kirdori bad	[gunoh, yomon amal]
فَحْشَاءٌ fahsho'	کار زشت kori zisht	[qabih ish]
فَحَّاشٌ Fahhosh	فحش گوی fahshgo'y	[fahshgo'y, yomon so'zlar aytuvchi, og'zi shaloq]

ISSN (E): 2181-4570

خَيْرٌ، أَخْيَارٌ ج، خِيَارٌ ج xayr, axyor j, xiyor j	نېك nek	[yaxshi, ezgu]
شَرٌّ Шарр	بَدِي badiy	[yomonlik]
ذَنْبٌ، ذُنُوبٌ ج zanb, zunub j	گَنَاه gunoh	[gunoh, ma'siyat]
جَرِيمَةٌ م، جَرَائِمُ ج jarima m, jaroim j		
جَرِيرَةٌ م، جَرَائِرُ ج jarira m, jaroir j		
جُرمٌ م jurm m		
جُنَاحٌ م junoh m		
زُورٌ Zur	دروغ durug‘	[yolg‘on]
حَقٌّ Haqq		
بَاطِلٌ Botil		
Izoh: ushbu jadvalda ba'zi shartli belgilardan foydalandik. Bu yerdagi m harfi ma'nodoshni ifodalash uchun va j harf jamni, ya'ni ko'plik uchun ishlatildi.		

Asarda so‘zlar arabcha, forscha va turkiychada o‘zaro solishtirilgan. Asardagi arabiylar so‘zlarga qaraydigan bo‘lsak, ularning ba’zilari turkiy tildagi, ba’zilari ham turkiy, ham forsiy tildagi muqobili yo‘qligini ko‘ramiz. Shunga ko‘ra bu teoloizmlarni shartli ravishda uch turga bo‘lishimiz mumkin:

- a) har uchala tilda o‘zaro muqobili bor so‘zlar;
- b) ikki tilda bo‘lib, uchinchisida muqobili yo‘q so‘zlar;
- c) faqat arabiychasi mavjud bo‘lib, turkiychada va forschada muqobili bo‘lmasan so‘zlar.

ISSN (E): 2181-4570

Bu so‘zlardan **savob, din, vuzu’** kabi so‘zlar arabiylari va forschasi mavjud bo‘lgan so‘zlar hisoblanadi va turkiyicha muqobili yo‘q.

Din so‘zining forschadagi muqobili sifatida **kish** so‘zi berilgan bo‘lsa-da, hozirda bu so‘z faol emas, **vuzu’** so‘zining forschasi **obdast** so‘zi esa abdest shaklida forschadan tashqari zamonaviy turk tiliga ham o‘zlashgan.

Haqq, botil, zakot kabi so‘zlar forschada va turkiychada muqobili yo‘q so‘zlar qatoriga kiradi. Yuqoridagi jadvalni diqqat bilan kuzatadigan bo‘lsak, ba’zilari bizning lug‘atimizda umuman ishlatilmaganini ko‘rishimiz mumkin, jumladan, zimor, jarira, samt, suht kabi so‘zlar faqat diniy kitoblardagina uchraydi va boshqa so‘zlar kundalik hayotimizda qo‘llaniladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bu asardagi teologizmlar nafaqat turkiy xalqlar adabiyoti va tarixi uchun, balki arab adabiyoti, ilm-fani uchun ham katta va muhim manba hisoblanar ekan. Biz bu asarni bitta yo‘nalish bo‘yicha tahlil qildik, biroq asardagi hali tadqiq ostiga olinadigan o‘rinlar ko‘p bo‘lib, ularni keyingi ilmiy ishlarimizda davom ettiramiz, deb umid qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Toshkentda 7-dekabr kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning davlat mukofotlarini tantanali topshirishga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqidan
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2005).
3. 1. Mahmud Zamashariy. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2019.
4. Solijon Hasanov. “Xorazm ma’naviyati darg‘alari”. – Toshkent: “Adolat”, 2001. B.123-130.
5. Ozod Masharipov, Alisher Masharipov. “Xorazmnoma”. – Toshkent: “Istiqlol nuri” nashriyoti, 2014. B. 201-218.
6. “Ma’naviyat yulduzlari” (To‘plovchi va mas’ul muharrir M. Xayrullaev). – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.